

**OLIIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI OLIY TA'LIM TIZIMI
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH
INSTITUTI**

KUCHKAROVA NAZIRA KAXRAMON QIZI

**MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING IJTIMOIIY
MADANIY SALOHIIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in pedagogical sciences**

Kuchkarova Nazira Kaxramon qizi

Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini
rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish.....3

Кучкарова Назира Кахрамон кизи

Совершенствование механизма развития социокультурного потенциала
слушателей в процессе повышения квалификации..... 25

Kuchkarova Nazira Kaxramon kizi

Improving the Mechanism for Developing the Socio-Cultural Potential of Trainees in
the Process of Professional Development.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**OLIIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI OLIY TA'LIM TIZIMI
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH
INSTITUTI**

KUCHKAROVA NAZIRA KAXRAMON QIZI

**MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING IJTIMOIIY
MADANIY SALOHIIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.Phd/Ped7317 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bimm.uz) va "ZiyoNET" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Zaripov Lochin Rustamovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Medetova Raushan Mamadiyarovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "26" 08 kuni soat 16.00 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20; faks: (+99871) 239-01-21; e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (42-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi 3-uy. Tel.: (99871) 203-01-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "04" 08 kuni tarqatildi.
(2026-yil "04" 08 da 15-raqamli reyestr bayonnomasi).



U.Sh.Begimkulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, pedagogika
fanlari doktori, professor

A.S.Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, pedagogika
fanlari doktori (DSc), dotsent

Y.U.Ismadiyarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ilm-fanida yangi pedagogik paradigmlar rivojlanayotgan sharoitda malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb masalalaridan biridir. Ijtimoiy-madaniy salohiyat kasbiy muloqot, madaniy idrok, jamoaviy faoliyat va global muhitda integratsiyalashuvni belgilovchi muhim omil bo'lib, uning rivoji malaka oshirish tizimining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalar sharoitida ta'limning uzluksizligi shaxsiy hamda kasbiy rivojlanish bilan birga ijtimoiy-madaniy yetuklikni ta'minlashi lozim. Jahon tajribasi, jumladan, Finlyandiya, Singapur va Janubiy Koreya modeli kompetensiyaviy yondashuv, refleksiya va zamonaviy texnologiyalarga asoslanadi. Shu bilan birga, raqamli imkoniyatlarning notekisligi, pedagoglarning texnologiyaga moslashuvidagi qiyinchiliklar, ularning ijtimoiy madaniyati hamda dasturlarning amaliy ko'nikmalar bilan yetarli integratsiyalanmaganligi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Dunyoning Garvard, Oksford, Kembrij, Stenford universiteti kabi oliy ta'lim tashkilotlarida malaka oshirish va uzluksiz ta'lim jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyati hamda madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirish masalalari yuzasidan izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, global ta'lim muhitida kommunikativ salohiyatni shakllantirish hamda kasbiy identifikatsiyaning ijtimoiy jihatlarini tahlil qilish orqali madaniy salohiyatni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ustuvorlik kasb etadi. Shuningdek, tinglovchilarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvi, ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlagini takomillashtirish, kasbiy-pedagogik jarayonni samarali loyihalashning akmeologik taexnologiyalarini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sohalarini rivojlantirish, inson kapitalini yuksaltirish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Ushbu jarayonda malaka oshirish tizimida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar malakasini oshirishning samarali mexanizmlarini joriy etish, inson kapitalini rivojlantirish hamda jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga olib chiqish"¹ muhim ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Chunki ijtimoiy-madaniy salohiyat shaxsning ijtimoiy faolligi, ma'naviy yetukligi hamda innovatsion va tanqidiy fikrlashini shakllantirishning muhim omili bo'lib, fuqarolik jamiyatini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi 637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi (Lex.uz).

rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2022-yil 1-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi 296-son "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malaka oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlaridan I.Abdullayeva, G.Boymurodova, R.Djurayev, F.Ergasheva, B.Xodjayev, M.Xolmurodov, A.Ibragimov, A.Ibraymov, R.Isyanov, Sh.Mardonov, N.Muslimov, N.Narziyeva, N.Qodirova, S.Raximov, D.Saidova, J.Tolipova, J.Yo'ldoshev, K.Zaripovlarning ilmiy ishlarida pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, malaka oshirish dasturlarining samaradorligi, ularni optimallashtirish hamda kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash masalalari tahlil qilingan. So'nggi yillarda F.Ergasheva, M.Xolmurodov, N.Qodirova, S.Raximov, D.Saidova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pedagoglarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari, interfaol metodlar hamda raqamli pedagogika sharoitida malaka oshirish tizimini modernizatsiya qilish masalalari chuqur o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan O.Kozireva, A.Markova, V.Slastyonin, E.Zeer, I.Zimnyaya kabi tadqiqotchilarning izlanishlarida pedagoglarning kasbiy o'sishi jarayonida ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirish tamoyillari va mexanizmlari, shuningdek, kasbiy malakani oshirishning innovatsion strategiyalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Xorijlik olimlardan R.Boyatzis, R.Burns, M.Knowles, G.Ollport, K.Rojers kabilarning tadqiqotlarida pedagoglarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish strategiyalari, madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish hamda kattalar ta'limida (andragogikada) interfaol yondashuvlarni joriy etish masalalari yoritilgan.

Biroq malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish masalasi maxsus tadqiq etilmagan. Ana shi sababli akademik litseylarning ingliz tili o'qituvchilari – malaka oshirish kursi tinglovchilarining ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish didaktik tuzilmasi va komponentlarini aniqlashtirish, milliy va xorijiy tajribalarni komparativistik tahlil qilish asosida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish jarayoni intensivligini ta'minlash, maxsus onlaym kurs vositasida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish lozim, degan xulosaga kelindi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Oliy

ta'lim tizimi kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining "Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta'lim va qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlarida o'quv faoliyatini tashkil etish" (2022-2024-yy.) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishning didaktik tuzilmasi va tarkibiy komponentlarini strukturaviy tahlil asosida aniqlashtirish;

tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari hamda didaktik imkoniyatlarini yoritib berish;

malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish;

malaka oshirish tinglovchilarida ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida O'zbekiston milliy universiteti, Buxoro davlat universiteti va Farg'ona davlat universiteti huzuridagi mintaqaviy markazlarining 454 nafar malaka oshirish kursi tinglovchilari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, ilg'or tajribalarni o'rganish, modellashtirish, suhbat, diagnostik topshiriqlar, pedagogik eksperiment, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya va faol o'qish-o'rganish tamoyillarining integratsiyasiga ko'ra ijtimoiy-madaniy mediatsiya mexanizmlarini faollashtiruvchi kognitiv, emotsional-aksiologik, kommunikativ-prakseologik, refleksiv-tahliliy va integrativ komponentlarning sinergik o'zaro aloqadorligi barqarorligini ta'minlash asosida kengaytirilgan;

tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modeli madaniy-moslashuvchan va maxsus-transversal kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlovchi taqsimlangan faoliyat subyektivligi bo'yicha umummadaniy layoqatni rivojlantirishda ma'rifiy, kommunikativ va kasbiy funksiyalarning modulli dasturlarini gorizontaal hamda vertikal integratsiyasiga asoslangan kasbiy-hamkorlik mexanizmini kiritish orqali takomillashtirilgan;

tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish jarayoni shaxsiylashtirilgan o'quv trayektoriyalari va hamkorlikdagi bilim konstruksiyasi tamoyillariga muvofiq yaqin rivojlanish zonasi bo'yicha mustaqil hamda hamkorlikdagi faoliyatini rag'batlantiruvchi tashkiliy-texnologik tuzilmani adaptiv scaffolding yondashuvi bilan boyitilgan teskari aloqa mexanizmini kiritish orqali rivojlantirilgan;

tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish samaradorligi madaniy kontekstga joylashtirilgan ssenariylar va tajribaviy o'qish sikli tamoyillariga ko'ra tinglovchilarda nuqtayi nazarlarni qabul qilish qobiliyati hamda o'zaro kommunikativ ta'sir ko'rsatish malakalarini kengaytirishga yo'naltirilgan jarayonlarni modellashtiruvchi shaxsiy o'sish muhitini yaratish, amaliy faoliyat bilan uzviy integratsiyani ta'minlovchi ijtimoiy-madaniy mediatsiya mexanizmini kiritish asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Pedagogical Innovative Methods in Teaching English” nomli o'quv darslik chop ettirilgan va o'quv faoliyatiga joriy qilingan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-son buyrug'i, №218-030 raqamli nashr ruxsatnomasi);

“Ijtimoiy-madaniy faoliyatning texnologik asoslari” nomli qisqa muddatli, masofaviy maxsus onlayn kurs dasturi ishlab chiqilgan hamda jarayonga tatbiq etilgan;

Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) kursi tinglovchilarida ijtimoiy-madaniy salohiyat rivojlanganligini baholash bo'yicha diagnostik vositalar tizimi ishlab chiqilgan;

malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiq etilayotgan muammoga metodik, psixologik va ilmiy-pedagogik yondashuvlar, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, tadqiq etilayotgan muammoga falsafiy hamda ilmiy-pedagogik yondashuv, tadqiqot maqsadi, obykti, predmeti, vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilgani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani, tajriba-sinov natijalari statistik ma'lumotlarga tayanilgani va matematik statistik jihatdan qayta ishlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini tashkil etuvchi tarkibiy komponentlarning aniqlashtirilishi, mazkur jarayonning psixologik-pedagogik xususiyatlari va uni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati modulli va andragogik yondashuvlar asosida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan tuzilmaviy-funksional model hamda interfaol o'qitish texnologiyalari orqali amaliy mashg'ulotlar samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya va faol o'qish-o'rganish tamoyillarining integratsiyasiga ko'ra ijtimoiy-madaniy mediatsiya mexanizmlarini faollashtiruvchi kognitiv, emotsional-aksiologik, kommunikativ-prakseologik, refleksiv-tahliliy va integrativ komponentlarning

sinergik o‘zaro aloqadorligi barqarorligini ta’minlash asosida kengaytirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan “Pedagogical innovative methods in teaching english” darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-son buyrug‘i, №218-030 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada tinglovchilarning ta’lim jarayonida ijtimoiy-madaniy faoliyatga doir o‘quv materiallaridan foydalanish malakasini rivojlantirishga xizmat qilgan;

tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional modelini madaniy-moslashuvchan va maxsus-transversal kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan taqsimlangan faoliyat subyektivligi bo‘yicha umummadaniy layoqatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ma’rifiy, kommunikativ va kasbiy funksiyalarning modulli dasturlar orqali gorizontol hamda vertikal integratsiyasini ta’minlovchi kasbiy-hamkorlik mexanizmini joriy etish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan “Pedagogical innovative methods in teaching english” darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-son buyrug‘i, №218-030 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuv va texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga yordam bergan;

tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish jarayonini shaxsiylashtirilgan o‘quv trayektoriyalari va hamkorlikdagi bilim konstruksiyasi tamoyillariga muvofiq yaqin rivojlanish zonasi bo‘yicha mustaqil hamda hamkorlikdagi faoliyatini rag‘batlantiruvchi tashkiliy-texnologik tuzilmani adaptiv scaffolding yondashuvi bilan boyitilgan teskari aloqa mexanizmini kiritish orqali takomillashtirishga doir takliflardan O‘zbekiston-Belarus hamkorligida 2022-2024- yillarda amalga oshirilgan IL-4821091576 – “Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta’lim va qayta tayyorlash hamda malaka oshirish tizimlarida o‘quv faoliyatini tashkil etish” loyihasining tinglovchilarni ijtimoiy-madaniy faoliyatga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanish kompetentligini rivojlantirish qismini bajarishda foydalanilgan (Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 15-dekabrdagi 02/01-01-581-son ma’lumotnomasi). Natijada tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishga doir masofiy ta’lim kontentini yaratishga xizmat qilgan;

tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish samaradorligini madaniy kontekstga joylashtirilgan senariylar va tajribaviy o‘qish sikli tamoyillariga ko‘ra tinglovchilarda nuqtayi nazarni qabul qilish qobiliyati hamda o‘zaro kommunikativ ta’sir ko‘rsatish malakalarini kengaytirishga yo‘naltirilgan jarayonlarni modellashtiruvchi shaxsiy o‘sish muhitini yaratish, amaliy faoliyat bilan uzviy integratsiyani ta’minlovchi ijtimoiy-madaniy mediatsiya mexanizmini kiritish asosida takomillashtirishga doir takliflardan O‘zbekiston-Belarus hamkorligida 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan IL-4821091576 – “Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta’lim va qayta tayyorlash hamda malaka oshirish tizimlarida o‘quv faoliyatini tashkil etish” loyihasining tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini masofaviy muhitda shakllantirishga yo‘naltirilgan interaktiv texnologiyalarni qo‘llash qismini bajarishda foydalanilgan

(Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 15-dekabrda 02/01-01-581-son ma'lumotnomasi). Natijada tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishda interaktivlikni oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 150 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan; ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi va amaliyotga joriy etilishi, nazariy va amaliy ahamiyati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida malaka oshirish kursi tinglovchilarida ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirish muammosining pedagogik-psixologik tadqiqotlarda o'rganilishi, ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirish tuzilmasi va tarkibiy asoslari hamda malaka oshirish kursi tinglovchilarida ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirishning amaliyotdagi holati yoritib berilgan.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida izchillik bilan amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo'nalishi sog'lom fikr yurita oladigan, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun zarur bo'ladigan rivojlanish istiqbollarini aniq belgilaydigan mutaxassislar tayyorlash masalalariga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Ma'lumki, malaka oshirish mazmuni har bir xodimning o'z mutaxassisligi bo'yicha so'nggi fan yutuqlari, sohaga oid so'nggi yangiliklar bilan tanishish, hamkasblari va xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, pedagogik jarayonda ulardan samarali foydalanishni o'zlashtirishdan iborat bo'lib, pedagoglarning o'quv mashg'ulot jarayonini yuqori ilmiy-uslubiy darajada ta'minlashlari uchun eng zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarini yangilash hamda yanada chuqurlashtirishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida pedagog kadrlarning malakasini oshirish bugungi kunda alohida ahamiyatga ega. Chunki ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarga ta'lim berish, tarbiyalanuvchilarni kelajakka yetuk insonlar qilib tayyorlash singari dolzarb vazifalarni bajarish uchun zamonaviy fikrlovchi, bugungi davr talablariga munosib bo'lgan, yuksak axloqiy fazilatli

pedagoglar faoliyat yuritishlarini taqozo etmoqda. Pedagog kadrlarning kasbiy va shaxsiy tayyorgarligi oliy ta'lim muassasalaridan keyin malaka oshirish ta'lim muassasalarida ham tizimli ravishda, uzluksiz davom etadi. Zamonaviy o'qituvchining kasbiy malakasini oshirish mohiyatini aniqlash muammosi hozirgi vaqtda psixologlar, amaliyotchi mutaxassislar, o'qituvchilar o'rtasida ziddiyat va kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Jumladan, Yu.Asadov, M.Yuldashev, A.Ibragimov, R.Choriyev, A.Andreev, A.Dochkin, V.Shadrikov, O.Kukosyanlarning tadqiqotlari fikrimizga dalil bo'la oladi. Malaka oshirish tizimini takomillashtirish, pedagog kadrlarni kasbiy jihatdan qayta tayyorlash, o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida ta'lim jarayonini tabaqalashtirish, ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish masalalari J.Yo'ldoshev, H.Yo'ldoshev, K.Zaripov, M.Yuldashevlar tomonidan o'rganilgan. J.Tolipova pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining dolzarb muammolaridan biri uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan, ko'p yillik ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilarning kasbiy bilimlarini kengaytirish, yangilash va boyitish, ijodiy va ijtimoiy faolligini rivojlantirish, raqobatbardoshligini o'rttirish ekanligini ta'kidlaydi.

Sh.Mardonov pedagoglar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish va rivojlantirishda ta'limiy qadriyatlarga tayanish hamda strategiyani puxta ishlab chiqish maqsadga muvofiqligini alohida ta'kidlab o'tgan. S.Saidqulovning fikriga ko'ra, ta'limni tabaqalashtirish malaka oshirish tizimini takomillashtirishning eng samarali yo'li sanaladi. Zero, tabaqalashtirish "ta'limning bir me'yorligini ta'minlaydi, pedagog xodimlarning malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojlarini maqsadli qondiradi, ularga ehtiyojlari asosida yetishmaydigan bilim, ko'nikmalar berishni takomillashtiradi va bu sohada ularning shaxsiy mas'uliyatlarini oshiradi".

So'nggi yillarda bir qator adabiyotlarda "ijtimoiy-madaniy salohiyat" tushunchasini faqat til bilan bog'liqlikda talqin qilishdan madaniyatshunoslik bilan aloqadorlikda turli jihatdan tadqiq etishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlarimizdan shu jihat ma'lum bo'lmoqdaki, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini tadqiq qilish bugungi kunning o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolaridandir. Ana shu jihatni hisobga olish asosida tadqiqot doirasida malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, tinglovchilarda ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish mazkur yo'nalishga doir ilmiy va kasbiy tayyorgarligini oshirish, madaniy ongini o'stirish, ijtimoiy va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish, shaxsiy rivojlanish, o'quv faoliyatini texnologik integratsiyalash, baholash va fikr-mulohazalar kabi algoritmik ketma-ketlikni taqozo etadi. Ushbu asosiy tarkibiy qismlarni takomillashtirish orqali tinglovchilar nafaqat fan bo'yicha bilimlari va o'qitish amaliyotini yaxshilaydilar, balki madaniy jihatdan xabardor, ijtimoiy faol va ta'limning o'zgaruvchan talablariga moslasha oladilar. Ushbu yaxlit rivojlanish tinglovchilarning inklyuziv, qo'llab-quvvatlovchi va innovatsion ta'lim muhitini yaratish uchun yaxshi jihozlanishini ta'minlaydi hamda natijada ta'limning umumiy sifatiga hissa qo'shadi.



1-rasm. Tinglovchilarda ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirish tuzilmasi.

Mazkur tuzilma tarkibidagi komponentlar quyidagicha tavsifga ega: kognitiv komponent – ijtimoiy-madaniy bilimlar va tushunchalar tizimini egallashni; emosional-aksiologik komponent – qadriyatlar, munosabatlar va empatik sifatning shakllanishini; kommunikativ-praksiologik komponent – samarali muloqot va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishni; refleksiv-tahliliy komponent – o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyatini takomillashtirishni; integrativ komponent esa mazkur sifat va kompetensiyalarning yaxlit tizim sifatida uyg‘unlashuvini ifodalaydi.

Tadqiqot doirasida olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish ko‘p omilli, murakkab va tizimli pedagogik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayon nafaqat alohida bilim va ko‘nikmalarni egallash bilan, balki shaxsning ijtimoiy tajribasi, madaniy qadriyatlarni anglash darajasi hamda kasbiy faoliyatda ularni qo‘llay olish kompetensiyasi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Ayni shu yondashuvga ko‘ra, ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogik paradigmalarning muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvor ahamiyat kasb etishi tinglovchilarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularning ijtimoiylashuv jarayonini chuqurlashtirish, madaniy identifikatsiyasini mustahkamlash va kasbiy moslashuvchanligini rivojlantirishni ham taqozo etadi. Shu jihatdan qaraganda, ijtimoiy-madaniy salohiyat pedagogning kasbiy kompetentligining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lib, uning samarali pedagogik faoliyat yuritishida muhim omil hisoblanadi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, malaka oshirish tizimida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishda integrativ yondashuvdan foydalanish yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Ushbu yondashuv turli fanlararo bilimlarni

uyg'unlashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni integratsiyalash hamda pedagogik faoliyatda innovatsion metodlarni qo'llashni nazarda tutadi. Natijada tinglovchilarda ijtimoiy voqelikni kompleks idrok etish, turli madaniy kontekstlarda samarali faoliyat yuritish va kommunikativ moslashuvchanlikni namoyon etish qobiliyatlari shakllanadi.

Shuningdek, tadqiqot doirasida aniqlangan muhim jihatlardan biri shundaki, ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirish jarayoni bevosita pedagogik muhit va o'quv jarayonining tashkil etilishiga ham bog'liqdir. Xususan, ochiq muloqotga asoslangan, hamkorlikka yo'naltirilgan va refleksiv faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhiti tinglovchilarning mazkur salohiyatini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Bunday muhitda tinglovchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, boshqalar fikrini hurmat qilish hamda madaniyatlararo muloqotda faol ishtirok etish ko'nikmalarini egallaydilar.

Bundan tashqari, ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Raqamli ta'lim resurslaridan samarali foydalanish tinglovchilarning global axborot makoniga integratsiyalashuvini ta'minlaydi, ularning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantiradi hamda mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois, malaka oshirish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar asosida xulosa qilish mumkinki, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish uzluksiz, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni talab etadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish esa, pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash hamda jamiyatning zamonaviy talablariga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida modulli ta'lim asosida tinglovchilarda ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari, tinglovchilarda ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirishning pedagogik modeli, mazkur modelni malaka oshirish jarayoniga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari yoritib berilgan.

Ijtimoiy-madaniy salohiyat kishining jamiyat hayotida faol ishtirokini ta'minlab, uning maqsadini shakllantirib, o'z iqtidorini namoyon etishini, o'z qadr qimmatini anglash va his etish, o'zining xatti-harakatlarini idora qilishni ta'minlaydi, insonga ulug'vorlik bag'ishlaydi, uni ma'nan yuksalishga olib keladi, ongi va irodasini o'sishiga xizmat qiladi, ertangi kunga, o'ziga ishonch bag'ishlaydi, inson bo'lib yashashiga ijobiy ta'sir qiladi, buning natijasida uniing ongi, tafakkuri, dunyoqarashi va salohiyati rivojlanib boradi.

Ijtimoiy-madaniy salohiyatli shaxs o'zining harakatlarini, kayfiyati va hislarini boshqarishni biladi, u o'z imkoniyatlariga to'liq ishonadi, faol ijtimoiy nazarga ega bo'lib, jamiyat va atrof-muhitdagi voqea hamda hodisalarning mohiyatini teran tushunadi, bunga o'zini yo'naltiradi, o'zining bildirgan fikrlarini asoslay oladi, yuzaga kelgan muammolarni ko'p mehnat qilmasdan, osonlik bilan yechimini topadi. U barcha

maqsadlarini o'z kuchi orqali amalga oshirib, boshqa insonlar oldida ahamiyatini, qadrini namoyish etadi, barqaror hayot kechiradi, xulq-odob madaniyatiga ega bo'ladi.

Ijtimoiy-madaniy salohiyat shaxsning o'zini o'zi anglashida, ijtimoiylashuvda katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy-madaniy salohiyatlilik zamirida kishilar o'rtasidagi samimiylik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat, o'zaro yordam, sabrbardoshlilik, boshqalarga nisbatan bag'rikenglik munosabatida bo'lish, hamdardlik, ezgulik, kamtarlik, vazminlik, do'stlik, vatanparvarlik, ezgulik, sadoqat, muruvvatlilik, qanoatlilik, insonga cheksiz muhabbat, bir-birlarini ulug'lash kabi umuminsoniy qadriyatlar turadi. Ijtimoiy-madaniy salohiyat turli xalqlar va millatlarni o'zaro yaqinlashtiradi, kishilarni shaxslararo ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlaydi. U o'zida milliy o'zlikni anglash, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, qonunlarga hurmat, boshqa millat vakillariga mehr-oqibatli bo'lish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, hayot davomida vujudga kelgan qiyinchilik va turli nizolarni bartaraf etish, boshqalarga yaxshilik istash, e'tiborlilik, marhamatlilik, halollik, insonparvarlik kabi sifatlarni mujassamlashtirgan.

Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirish o'quv jarayoniga integratsiyalashgan umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ta'lim dasturlarini tatbiq etilishi asosida shakllanadi. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirish dolzarb masala hisoblanib, mutaxassisning milliy va diniy qadriyatlar manbalarini ijodiy o'zlashtirishi, o'zida milliy, ijtimoiy-madaniy ko'rsatkichlarni shakllantirishi, davlat, jamiyat, kishilar va umuman olamga nisbatan munosabati maxsus tashkil etilgan ta'lim yordamida samarali amalga oshadi.

Malaka oshirish kursi tinglovchilarining ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirish ularning kasbiy ko'nikma va malakalarini tashqi muhit o'zgarishlarini hisobga olgan holda, ijtimoiy faolligini maqsadli oshirish, ularda ijtimoiy me'yorlarga mos keladigan ijobiy xislatlarni yanada takomillashtirish hamda tahsil oluvchilarning samarali ijtimoiylashuviga yordam beradi. Ijtimoiy-madaniy salohiyat tinglovchining shaxsiyatini, tahlil qilish va taqqoslash qobiliyatini rivojlantirish, kasbiy bilimlarini mukammallashtirish, nafaqat bilimga asoslangan, balki hayotiy tajriba asosida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarining ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirishning samaradorligi malaka oshirishning mazmuni tinglovchilarda ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirishga yo'naltirilib, belgilangan maqsadning kafolatli natijasi pedagogik jarayonning shaxsning ijtimoiylashuvi, kasbiy yo'nalganligi, ijtimoiy-madaniy bilimlarning o'zlashtirilishi, olingan ta'lim sifati, yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarning tahsil oluvchining imkoniyatlari va qiziqishlari doirasidan kelib chiqib amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi.

Malaka oshirish jarayonida modulli ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish o'zining mazmuni-mohiyatiga ko'ra, tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirishning eng samarali yo'llaridan biridir.

Modulli ta'lim asosida malaka oshirish jarayonida tinglovchilarda ijtimoiy-madaniy salohiyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlarni hisobga olishni taqozo etadi: ijtimoiy-madaniy intellekt; ma'naviy-madaniy salohiyat; ijtimoiy-axloqiy kamolot; ijtimoiy-madaniy yetuklik. Modulli ta'lim asosida

tinglovchilarda ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirishda har bir o'quv moduli mazmunida ijtimoiy-madaniy tavsifdagi o'quv materiallarini strukturalashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Modulli o'qitish tizimi asosida malaka oshirish jarayoni tinglovchilarida ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirishda "Ijtimoiy-madaniy salohiyatning texnologik asoslari" kursi belgilab olindi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarda ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirishning modulli o'qitish tizimi

Ijtimoiy-madaniy salohiyatning ustuvor yo'nalishlar	IM salohiyatni rivojlantirish yo'nalishlari tavsifi	O'quv moduli mavzulari	Yordamchi o'quv modullari
Ijtimoiy-madaniy intellekt	Muhim intellektual jarayonlarning rivojlanganligi: analiz, sintez, taqqoslash, tizimlashtirish, maqsadga muvofiq harakatlar uyg'unligi, ijtimoiy vaziyatlarni tushunish; ijtimoiy-madaniy moslashuvchanlik qobiliyati	Ijtimoiy-madaniy faoliyat texnologik asoslari, mohiyati va tuzilishi	Pedagogik faoliyat raqamli kompetensiyalar Xorijiy tilni o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalar dan foydalanish
		Ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning mazmuni	
		Ijtimoiy madaniy faoliyatning axborot va reklama, axborot-kognitiv hamda tadqiqot texnologiyalari	
		Ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning tarkibiy qismlari	
Ma'naviy-madaniy salohiyat	Qadriyatli yo'nalishlarga ijobiy yo'nalganlik: hayotiy qadriyatlar (hayot, salomatlik, mehnat, oila va boshqalar); madaniy qadriyatlar (ma'naviy, ijtimoiy-madaniy, moddiy)	Madaniy ijodiy, rekreativ, ta'lim va ijtimoiy himoya texnologiyalari	Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari
		Zamonaviy etnik-madaniy va ijtimoiy-madaniy boshqaruv texnologiyalari	
Ijtimoiy-axloqiy kamolot	Ijtimoiy-axloqiy sifatlarining (mas'uliyat, maqsad sari intilish, tirishqoqlik, fidoyilik, tashabbuskorlik, o'z-o'ziga ishonch	Ijtimoiy-madaniy faoliyatning texnologik usullari	Chet tillarni o'rgatishda tenglik, xilma-xillik va inklyuzivlikni ta'minlash
		Alternativ, muloqot va loyiha texnologiyalari	
Ijtimoiy-madaniy yetuklik	Perseptiv, empatik, kommunikativ, refleksiv, o'z-o'zini namoyon etish qobiliyatlariga egalik, kasbiy va ijtimoiy ahamiyatli vazifalarga yechim topish	Ijtimoiy-madaniy faoliyat texnologiyalari tasnifi	Pedagogning kasbiy kompetensiyalar ni rivojlantirish
		Ijtimoiy-madaniy faoliyat texnologiyalarining asosiy turlari	
		Oilaviy hamda o'rta va keksa yoshdagilar uchun ijtimoiy-madaniy dam olish texnologiyalari	
		Bolalar, o'smirlarning bo'sh vaqtini tashkil etish, Ijtimoiy-madaniy reabilitasiya texnologiyalari	

Ijtimoiy-madaniy salohiyat mazmuni ijtimoiy hayot hamda kasbiy faoliyat talablari bilan bog‘liq shaxs sifatlarini o‘zida namoyon qiladi. Bu esa, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish modelini ishlab chiqishni taqozo etdi (2-rasmga qarang).

Ishlab chiqilgan pedagogik model uchta o‘zaro bog‘liq blokdan iborat: mazmunli, tashkiliy-texnologik va natijaviy bloklar. Modelning tuzilishi deduktiv mantiqqa asoslangan – maqsaddan mazmunga, mazmundan amalga oshirish mexanizmlariga va nihoyat natijaga qarab harakatlanadi. Shu bilan birga, model natijadan maqsadga yo‘nalgan teskari aloqa orqali siklik, o‘z-o‘zini takomillashtiruvchi yopiq tizim sifatida tashkil etilgan, bu esa malaka oshirish jarayonining uzluksiz va rivojlanuvchan xususiyatini ta‘minlaydi.


Tamoyillar tizimi beshta o‘zaro to‘ldiruvchi tamoyildan iborat: shaxsga yo‘naltirilganlik (individual rivojlanish traektoriyalarini ta‘minlash), madaniyatlararo muloqot (ko‘p millatli muhitda samarali muloqot malakasini shakllantirish), amaliy yo‘naltirilganlik (nazariy bilimni amaliyot bilan bog‘lash), raqamli ochiqlik (raqamli fuqarolik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish) hamda integrativlik (barcha tamoyillarni yaxlit tizimga birlashtiruvchi asosiy yo‘nalish).

Pedagogik shart-sharoitlar to‘rttadan iborat: 1) shaxsga yo‘naltirilgan va andragogik yondashuvni ta‘minlash (individual trayektoriyalar, tajribadan o‘quv resursi sifatida foydalanish); 2) madaniy-ma‘naviy muhit yaratish (tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy muloqotga faol kirishishi uchun sharoit); 3) interfaol va ijodiy metodlarni qo‘llash (bilimning tinglovchi tomonidan faol qurilishi – muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar, loyiha faoliyati orqali); 4) amaliy faoliyat va madaniy tajriba almashuvini tashkil etish (real kasbiy muhitda bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash).

Rivojlanish bosqichlari to‘rtta ketma-ket va o‘zaro bog‘liq bosqichdan iborat bo‘lib, kognitiv-affektiv-konativ-kommunikativ mantiqqa asoslanadi: 1) poydevor bilim bazasini shakllantirish; 2) empatiya va madaniy sezgirlikni rivojlantirish (qiymat-motivatsion soha); 3) jamiyat bilan integratsiya va ijtimoiy faollikni oshirish (amaliy ijtimoiy faoliyat); 4) kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish, jumladan, ziddiyatli vaziyatlarda muloqot va konfliktlarni hal etish malakasi. Bosqichlar ketma-ketligi “bilim → his etish → harakat → muloqot” izchilligini ifodalab, shaxsning yaxlit rivojlanishini ta‘minlaydi.

Ta‘lim shakllari, metodlari va vositalari jihatidan model auditoriya hamda auditoriyadan tashqari, yakka, guruh va jamoaviy shakllarni; tushuntirishli-ko‘rgazmali, muammoli bayon, izlanishli va tadqiqotchilik metodlarini (reproduktivdan ijodiy faoliyatga qarab) hamda autentik materiallardan (davriy matbuot, ijtimoiy tarmoq materiallari) foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Baholash tizimi to‘rtta mezon – kognitiv, emotsional, refleksiv va integrativ – asosida quriladi (B.Bloom taksonomiyasi va D.Goulmenning emotsional intellekt nazariyasiga tayanadi) hamda uch darajali shkala – reproduktiv, produktiv, ijodiy – bo‘yicha amalga oshiriladi. Mezonlar va darajalar o‘rtasidagi ikki o‘lchamli matritsa har bir tinglovchining har bir mezon bo‘yicha alohida rivojlanish darajasini aniqlash imkonini beradi, bu esa baholashning yuqori differensialligini ta‘minlaydi.



2-rasm. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishning pedagogik modeli.

Mazkur modelni joriy etish maqsadida tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirish mexanizmi ishlab chiqildi (3-rasmga qarang).

Ishlab chiqilgan aksiologik mexanizm besh ketma-ket bosqichdan iborat bo‘lib, tinglovchi shaxsining qadriyatlarga munosabatini bilishdan integratsiyalashgan e’tiqodga qadar rivojlantiruvchi uzluksiz pedagogik tizimni tashkil etadi.

1-bosqich. Kognitiv bosqich – qadriyatlar mohiyati va mazmunini anglash. Bu bosqichda tinglovchilarda qadriyatlarning falsafiy, sotsiologik va pedagogik ildizlari, ularning ijtimoiy tizimdagi funksiyasi va madaniyatlararo muloqotdagi roli haqida ilmiy tushunchalar shakllantiriladi. Madaniyatlar evolyutsiyasi, sivilizatsiyalararo o‘zaro ta’sirlar va qadriyat paradigmasining o‘zgarish sabablari tahlil qilinadi. Natijada tinglovchida dunyoqarash va konseptual tafakkur shakllanib, bilim refleksiv xarakter kasb etadi – bu keyingi bosqichlar uchun bilimiy poydevor vazifasini bajaradi.


2-bosqich. Emotsional bosqich – qadriyatlarga samimiy munosabatni rivojlantirish. Qadriyatlar faqat aqliy emas, balki hissiy darajada ham mustahkamlanishi lozimligidan kelib chiqib, bu bosqichda tolerantlik, empatiya va hamdardlik kabi his-tuyg‘ular rivojlantiriladi. Rolli o‘yinlar, madaniy vaziyatlarga asoslangan treninglar, “qadriyatlar hikoyasi” kabi metodlar orqali tinglovchilar qadriyatlarni shaxsiy tajriba sifatida his etadilar. Natijada qadriyatlarga nisbatan ichki e’tiqod shakllanib, ular hayotiy motivga aylanadi.

3-bosqich. Amaliy bosqich – qadriyatlarni faoliyatda qo‘llash. Bu bosqichda qadriyatlar nazariy bilimdan real xatti-harakatga o‘tadi: tinglovchilar kasbiy qaror qabul qilishda qadriyatlarga tayanish, madaniyatlararo muloqotda muvozanatli pozitsiya egallash va madaniy sezgirlikni namoyon etish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradilar. Qadriyatlar endi bilim yoki hissiyot emas, balki faoliyat motivi va qaror qabul qilish mezoniga aylanadi.

